

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZILIGI  
ABDULLA QODIRIY NOMLI JIJAX DAVLAT  
PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**FIZIKA-MATEMATIKA FAKULTETI  
“UMUMIY FIZIKA”  
KAFEDRASI**

**“Himoya qilishda ruxsat beraman”  
Fizika-matematika fakulteti dekani  
\_\_\_\_\_ dots.Orzuqulov A  
\_\_\_\_\_ 2013y**

**5140200- “Fizika- Astronomiya” yo’nalishi bo’yicha bakalavr darajasini olish  
uchun**

**“3.25 GeV/c impulsli 16O<sup>p</sup>-to’qnashuvlarida 3H, 3He, 7Li va 7Be  
ko’zgu yadrolarining hosil bo’lishini o’rganish” mavzusida bajarilgan**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Bajaruvchi: “Fizika-Astronomiya” yo’nalishi  
IV kurs tolibi Xolmirzaeva Oynisa  
Ilmiy raxbar: o’q. Qurbonov A.R.**

**Ishni himoyaga tavsiya etaman:**

**o’q. Qurbonov A.R.**

(ilmiy rahbar ismi va sharifi)

\_\_\_\_\_ (imzo)

**BMI “Umumiy Fizika” kafedrasi yig’ilish qarori bilan  
(qaror \_\_\_\_\_ 2011y) himoyaga tavsiya etilgan**

**Kafedra mudiri: dots. Doniyorov Sh \_\_\_\_\_**

**Jizzax -2013**

# MUNDARIJA

|             |   |
|-------------|---|
| Kirish..... | 3 |
|-------------|---|

## 1-BOB. KO'ZGU YADRILARNING HOSIL BO'LISH USLUBI.

|                                                                   |    |
|-------------------------------------------------------------------|----|
| 1.1. Qayd qilgichlar va turlari.....                              | 5  |
| 1.2. Pufakchali vodorod kamerasining asosiy xarakteriskalari..... | 7  |
| 1.3. Voqealarni qarash, ajratish va o'lchash.....                 | 8  |
| 1.. Tezlatkich turlari.Sinxrofazatron.....                        | 13 |

## 2-BOB. 3.25 GeB/c impulsli $^{16}\text{O}$ - to`qnashuvida $^3\text{H}$ , $^3\text{He}$ , $^7\text{Li}$ va $^7\text{Be}$ kuzguli yadrolarining hosil bo`lishini o`rganish

|                                                                                                                                                                           |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| 2.1.3.25 GeB/c impulsli $^{16}\text{O}$ - to`qnashuvida $^7\text{Li}$ va $^7\text{Be}$ kuzgu yadrolarining hosil bo`lishini o`rganish.....                                | 30 |
| 2.2. 3.25 GeB/c impulsli $^{16}\text{O}$ - to`qnashuvida $^7\text{Li}$ va $^7\text{Be}$ kuzgu yadrolarni tepki protonlar bilan birgalikda hosil bo`lishini o`rganish..... | 35 |
| 2.3. 3.25 GeB/c impulsli $^{16}\text{O}$ - to`qnashuvida $^3\text{H}$ va $^3\text{He}$ kuzgu yadrolarining hosil bo`lishini o`rganish.....                                | 37 |

|             |    |
|-------------|----|
| XULOSA..... | 44 |
|-------------|----|

|                                         |    |
|-----------------------------------------|----|
| FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI..... | 46 |
|-----------------------------------------|----|

# KIRISH

Yadro tuzilishi va uning reaksiyalar oxirgi mahsuliga ta'siri, shuningdek yadro fragmentlari hosil bo'lishida zaryad almashinuv jarayonlaridagi roli haqidagi muhim ma'lumot manbalaridan biri relyativistik yadrolarning nuklonlar va yadrolar bilan poluinklyuziv va eksklyuziv reaksiyalarga maksimal yaqinlashgan kanallar uchun to'qnashuvlarni tadqiq qilish (to'liq geometriya sharoitida fragmentlarni to'liq aniqlanishi va ularning impulslari va uchish burchaklarini o'lchanishi bilan). Eksperimental ma'lumotlarga bunday talablarga kuchli magnit maydonida joylashtirilgan pufakchali kameralarni relyativistik yadrolar bilan nurlantirish yordamida bajariladigan eksperimentlar ko'proq mos keladi.

Ko'plamchi zarralar va yadro fragmentlari tuqilishi bo'yicha katta hajmli eksperiment materiallari mavjudligiga qaramasdan, shu vaqtga qadar yuqori energiyali adron- va yadro-yadro to'qnashuvlari bo'yicha eksperimental ma'lumotlar to'plamini miqdoriy tavsiflashi mumkin bo'lgan yakuniy nazariya yaratilmagan. Buning asosiy sababi adron- va yadro-yadro to'qnashuvlar hodisalarining o'ta murakkabligi, ularning ko'p bosqichli xarakterlari va rangli kvark-glyuon erkinlik darajasining namoyon bo'lishi, shuningdek reaksiya mahsulotlari bo'lgan fragmentlar va zarralarning turli xarakteristikalarini o'rtasidagi korrelyatsiya tadqiqotlarini o'tkazish imkoniyatini beruvchi poluinklyuziv va eksklyuziv yadro reaksiyalar kanallari bo'yicha eksperimental ma'lumotlarning etarli bo'lmaganligidadir.

Mazkur diplom ishining tadqiqot ob'ekti 3.25 A  $\Gamma\text{B/c}$  impulsli kislorod yadrosining proton bilan o'zaro ta'sirlashuvida parchalanish jarayonlaridir, tadqiqot predmeti esa yarim inklyuziv  $^{16}\text{O}$ -reaktsiyalarida ko'p nuklonli tizim va yadrolar,  $^3\text{He}$ ,  $^3\text{H}$ ,  $^7\text{Li}$ ,  $^7\text{Be}$  engil "ko'zgu" yadrolarning zaryadlangan pionlar tuqilishi va  $A \leq 4$  massa sonli fragmentlar bilan birgalikda hosil bo'lishidir.

Hozirgi paytda relyativistik yadrolar parchalanish jarayonida ko'p nuklonli tizim va yadrolar hosil bo'lishi etarlicha o'rganilmagan. To'liq geometriya sharoitida dastlabki

3 – 300  $\Gamma\text{B}$  energiyalar oraligida adron-yadro to'qnashuvlarida  $p^{12}\text{C}$ - (4.2  $\Gamma\text{B/c}$ ),  $p^{12}\text{C}$ - (9.9  $\Gamma\text{B/c}$ ),  $\pi^{-12}\text{C}$ - (4.0, 5.0, 40.0  $\Gamma\text{B/c}$ ),  $\pi^{-}\text{Xe}$ - (2.34  $\Gamma\text{B/c}$ ),  $\pi^{-20}\text{He}$ - (25.0, 50  $\Gamma\text{B/c}$ ),  $^{16}\text{O}p$ - (3.25 A  $\Gamma\text{B/c}$ ),  $p^{20}\text{He}$ - (300  $\Gamma\text{B/c}$ ) ta'sirlashuvlarda protonlar-fragmentlarining hosil bo'lishi va ularning alohida universal xossalrigina etarlicha yaxshi o'rganilgan. O'rtacha ko'plamchiligi va inklyuziv kesimida aniqlangan  $A \leq 4$  fragmentlarning hosil bo'lishi bo'yicha kam sonli ma'lumotlar mavjud, ularning impulsleri va burchak spektrlari olingan, hosil bo'lish asosiy mexanizmlari, shuningdek, alohida shakllanish chegaraviy tartiblari o'rnatilgan.

# **1-BOB. KO'ZGU YADRILARNING HOSIL BO'LISH**


## **USLUBI.**

### **1.1. Qayd qilgichlar va turlari**

Zarralarni qayd qilishlik detektorlar yordamida amalga oshiriladi.

Detektorlarni ikkita toifaga – hisoblagichlar va zarralar izlarini hosil qiluvchilarga ajratish mumkin. Zarralar hisoblagichlarda elektr impulsi hosil qilishga, bu bilan zarralar oqimini, massa, zaryad, tezlik va energiyalarni va h.k. aniqlash mumkin.

Izli detektorlarda zarra izini, harakat yo'nalishini boshqa zarra, yadrolar bilan to'qnashuv jarayonlarini, yemirilish va boshqa ko'plab ta'sirlashuv xususiyatlarini aniqlash mumkin. Zaryadsiz zarralar muhit bilan ta'sirlashganda ionizatsiya hosil qilishmaydilar, bu zarralarni ta'sirlashuvida hosil bo'luvchi ikkilamchi zaryadli zarralarga ko'ra qayd qilinadi.



Hisoblagich detektorlarning asosiy xususiyatlari:

1. Effektivligi – hisoblagichda qayd qilingan zarralar sonining hisoblagichga kelib tushgan zarralar soniga nisbati foiz hisobida  $\varepsilon = \frac{N_k}{N_T} = 100\%$ , bu yerda  $\varepsilon$  - effektivlik,  $N_k$  - hisoblagich qayd qilgan zarralar soni,  $N_T$  - hisoblagichga kelib tushgan zarralar soni.

2. Vaqt bo'yicha ajrata olish qobiliyati – bu shunday vaqt oralig'iki, bu vaqtda detektorga kelib tushgan zarralarni alohida-alohida ajrata olish uchun kerak bo'lgan minimum vaqtdir.

3. Energiya ajrata olish qobiliyati.

Izli detektorlar xususiyatlari:

1. Effektiv hajm – effektiv hajm oshsa zarra izlari va yemirilish jarayonlari izlari to'la joylashadi. Kameradan chiqib ketishmaydi.
2. Vaqt birligida ishchi sikl soni. Detektor qancha tez ishchi holatiga qaytsa shuncha yaxshi.
3. Sezgirligi. Eng kichik ionlashtirishlarni seza olishi.
4. Boshqarilishi.
5. Tajriba natijalarini yengil va tezda qayta ishlash. Masalan, fotografik usullarda izlarni olish va qayta ishlash uzoq muddatli qiyin ishlardir.
6. Iqtisodiy ko'rsatkichi. Ayrim kameralar narxi juda qimmatligi uchun jahondagi bir nechagina laboratoriyalar mavjud.

Hozirgi vaqtda ko'plab detektorlar mavjud, muhim turlari 1-jadvalda keltirilgan.

## **1.2. Pufakchali vodorod kamerasing asosiy xarakteriskalari.**

1 metrlik pufakchalik vodorod kamerasi 3.25 A GeV/c impulsli relyativistik kislorodlar oqimi bilan birlashgan yadro tadqiqotlari instituti, yuqori yenergiyalar fizikasi sixrofazatroni yordamida nurlantiridi.

Tezlashtirilayotgan birlamchi kislorod yadrosi oqimi ichida boshqa yadrolarning (  $^{12}\text{C}, ^{14}\text{N}$  ) ulushi 15% ni tashkil qiladi. Kamera magnit maydonga joylashtirilgan bo'lib, magnit maydon kuchlanganligi  $H = 18.5$  kGauss ni tashkil qiladi. Kuchlanganlikning vertikal tashkil etuvchisi  $H_z$  bir jinsli bo'lmaganligi uchun kuchlanganlikning uchta komponentalari  $H_x$ ,  $H_y$ ,  $H_z$  qiymatlari o'lchandi. Ishchi suyuqlikning ( vodorodniki ) zichligi  $\rho = (0.05584 \pm 0.0001) \text{ g/cm}^3$  ga teng.

Vodorod kamerasining ( VPK – 100 ) ishchi hajmi 4 ta fotokamera yordamida su'ratga olindi. Bu kameralarning optik o'qlari bir – biriga parallel joylashgan bo'lib, rasmga tushirish bazislari VPK- 100 ning ko'ndalang yo'nalishi bo'yicha 500 mm ni boylama yo'nalishi bo'yicha 310 mm ni tashkil qiladi. VPK – 100 ning rasmga oluvchi hajmi  $960 \times 360 \times 295 \text{ mm}^3$  ni tashkil qiladi.

### **1.3. Voqealarni qarash, ajratish va o'lchash**

VPK -100 da olingan stereofotografiyalarni qarash elektr zaryadi saqlanishini ( ikkilamchi zarralar zaryadlari yig'indisi 9 ga teng bo'lishi kerak ) hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Har bir to'qnashular uchun ikkilamchi zarralarning to'liq soni,  $V_0$  – zarralar soni, Dalitsa juftligi soni, musbat bir zaryadli zarralar soni va zaryadlari  $8 > Z > 2$  bo'lgan birlamchi yadro fragmentlari soni aniqlandi.

“ Voqealarni ” tanlab olishda, har bir qayd etilgan birlamchi “ yulduzda ” quyidagi xarakteriskalar aniqlandi :

$n_-$  - manfiy zaryadli zarralar soni, identifikatsiyalangan elektronlardan tashqari;

$n_+$  - musbat zaryadli zarralar soni, identifikatsiyalangan proton va pozitronlardan tashqari ;

$n_p$  - identifikatsiyalangan protonlar ning  $20 < R < 1200$  MeV/c intervaldagi soni.

Identifikatsiyalash - kamera moddasi ichidagi erkin yugurish yo'li bo'yicha, ionizatsiya bo'yicha va  $b$  - elektronlar bo'yicha, kameradagi protonlarning minimal uzunligi 3 mm, bu esa impuls bo'yicha proton uchun 140 MeV/c;  $n_+$ ,  $n_-$ ,  $n_q$ ,  $n_p$  - ikkilamchi zaryadlangan zarralar "ko'pligi".

$n_q$  - identifikatsiyalangan protonlar soni, lekin  $Q_{lob} > 90^0$ , ya'ni orqaga qaytgan protonlar soni;

$n$  - [ - kvantlar soni, ular  $e^+ e^-$  juftlik hosil qiladi. ]

$n_{v0}$  - neytral "g'alati" zarralarning parchalanishini vizual kuzatilgan soni;

$n_N$  - birlamchi to'qnashuvda hosil bo'lgan ikkilamchi "yulduzcha" lar soni, ular neytral adronlar tufayli hosil bo'ladi.

Hamma topilgan "yulduzcnalar" to'qnashuv turiga qarab;  $n_-$ ,  $n_+$ ,  $n_p$ ,  $n_{pv}$  va ular  $Q_i$  zaryadiga qarab, barion soni va energiya impulsiga qarab identifikatsiyalanadi.

Qarashdan keyin ajratib olingan voqealarni o'lchash EXM larda birdaniga chiqishiga moslashtirilgan yarimavtomatli qurilma – PIK ( qarash o'lchash qurilmasi ) lar yordamida amalga oshiriladi. O'lchashlarning matematik qayta ishlashi to'qnashuvlarni geometrasini hisobga olib tuzilgan maxsus modifikatsiya qilingan dastur asosida amalga oshiriladi.

Ilgari ishlatib kelingan, sinovdan o'tgan maxsus ishlab chiqilgan matematik qayta ishlash protsedurasi maxsulotidan: ZINPUT – GEOMOR – CLPHOP – PASPORT – COLLDS – DSTWRTOP dan foydalanildi. Bu yerda qarashda olingan ma'lumotlar, dastlabki metodik taqsimotlar, xatolar royxati va boshqa parametrlar hisobga olinadi.

Bu dastur "voqeani" fazoda aynan tiklab beradi va ikkilamchi zarralar parametrlarni aniqlaydi, shuningdek  $v_0$  - zarra va - kvantlarni kinematik

ishlab beradi. Zarralarning traektoriyasini geometrik tiklash ikkita proeksiyada koordinatalarni ( nuqtalarni ) o'lchash natijalariga ko'ra olinadi.

O'lchangan traeklar uchun quyidagi parametrlar aniqlandi.  $p$  - laboratoriya sistemasida zarra impulsi,  $\tan \alpha$  - burchak tangensi, ya'ni iz yo'nalishi va XOY o'rtasidagi burchak. Zarra impulsi magnit maydonda izning egriligidan hisoblanadi va albatta ionizasion va radiatsion yo'qotishlar hisobiga olinadi. Hamma qiymatlar boshlang'ich, birlamchi yaqinlashish hisoblanadi.

$r$ ,  $\alpha$ , va  $\tan \alpha$  parametrlarning optimal qiymatlari minimizatsiyalash yo'li bilan topiladi

$$2 = (y_{ei} - y_i) G_{i-1} (y_{ej} - y_j)$$

Bunda  $y_{ei}$  va  $y_{ej}$  - o'lchangan,  $y_i$  va  $y_j$  - izlanayotgan parametrlar qiymati;  $G_{i-1}$  - matritsa, o'z ichiga o'chash xatoligi, kulon sochilishi, ionizasion yo'qotishlar, tormozlanish nurlanish fluktasiyasi va magnit maydoni nobir jinsligi kabi parametrlarni oladi,  $N$  - o'lchangan nuqtalar soni. Alohida bir traekni o'lchash sifatida va funktsionallari qiymatiga bog'liq bo'ladi. Birinchisi  $r$  va  $\alpha$  ning optimal qiymatlarini hisoblashdagi aniqlikni xarakterlaydi, bo'lsa  $\tan \alpha$  - ning aniqlikdagi aniqligi. Yaxshi o'lchash natijalarini olish uchun  $X^2$  qiymatlar bo'yicha ikkilamchi zarralar treklar taqsimoti olindi. Bu hisob-kitoblar asosida  $2x_u$ ,  $2z < 3.5$  deb tanlab olindi. Ularning qiymatlari esa

Aslida, nazariy jihatdan  $\langle 2 \rangle = 1$  bo'lishi kerak edi. Yuqoridagi kriteriyalarda mos keluvchi treklar uchun impuls va uchib chiqish burchalari xatoliklari hisoblandi.

Protonlar va  $+$  - mezonlar uchun taqsimotlar  $p < 1.25 \text{ GeV}/c$  impulsar uchun olindi. Hamma manfiy zaryadga ega bo'lgan zarralar  $-$  - mezonlar deb hisoblandi, chunki birlamchi  $p_0 < 3.25 \text{ A GeV}/c$  impulslarda K- - mezonlar va prorton - antiproton juftliklar paydo bo'lishini hisobga olmaslik mumkin.

Bunday tadqiqotlar uchun o'lgan xalqaro ilmiy markazlarning tashkil qilinganligi tasodifiy hol emas. Jenevadagi Yevropa tadqiqotlari markazi (SERN, Shveysariya) va Dubnadagi Birlashgan Yadro tadqiqotlari instituti (OIYaI, Rossiya Federasiyasi).

Ishlarda tashkilotning hamkor davlatlari bilan bir qatorda dunyoning ko'pgina davlatlari ham ishtirok etmoqda. Energiyaning yangi cho'qqilariga yorib o'tish LNC tomonidan amalga oshiriladi!

Bu tezlatgichning ishga tushirilishi bilan SERN yuqori energiyalar sohasi xalqaro markaziga, LHC esa bu fanning xalqaro ilmiy hamjamiyatida yo'lboshchilik ramziga aylanadi.

d) Zarralar fizikasi uchun yuqori saviyadagi kompyuterlashtirish va tadqiqotlarning hamma bosqichlarida kompyuter texnologiyalari qo'llanilishining ilg'or madaniyati xosdir. Mukammallashgan kompyuter texnikasi va mos dasturiy ta'minot har qanday zamonaviy eksperimentning ajralmas tashkil etuvchi qismi hisoblanadi. Kompyuter va mikroprosessorlar zaruriy axborotlarni ajratib olishni boshqarish, uning sifatini nazorat qilish, ma'lumotlarni tashqi yig'uvchilarda saqlab qolish va bu axborotlarni real vaqt masshtabida on line deb nomlanuvchi rejimda dastlabki qayta ishlashni amalga oshiruvchi zamonaviy tajriba qurilmalarining muhim tashkil etuvchilari hisoblanadi. Tajriba natijalari tahlili va keyingi qayta ishlari off line rejimida quvvatli, imkoniyatlari yuqori bo'lgan hisoblash komplekslaridan foydalanilgan holda bajariladi. Zarralar fizikasi bo'yicha tajribalarning zamonaviy metodikasi va ularga axborotlar tushish tezligi va hajmining juda yuqoriligi har qanday nuqtadan ma'lumotlar bilan ishlash

imkoniyatini beruvchi yuqori tezlikka ega global (yalpi) hisoblash tarmoqlaridan foydalanish zaruriyatini talab qiladi.

Kompyuter tarmoqlarining rivoji va mukammallashuvi ilmiy hamjamiyatda SERN xodimlari tomonidan katta xalqaro kollaborasiyalarni tashkil qilish va ularning samarali ishlashi uchun “dunyo o’rgamchak uyasi” nomi bilan ma’lum bo’lgan axborot almashinuvining sifat jihatidan yangi turini yuzaga keltirdi. Kompyuterli Internet tarmoqda ishlovchi bu tizimda axborotlar qayerdan olingan bo’lsa o’sha joyda saqlanadi. Ma’lumki, ko’plab davlatlarni o’z ichiga qamrab olgan WWW tizimi bugungi kunda fandan tashqarida ham keng qo’llanilmoqda.

LHC ning ishga tushirilishi bilan yuqori energiyalar fizikasi sohasida qayta ishlash kerak bo’lgan axborotlar hajmi keskin oshadi. Shuning uchun Crid texnologiyasi yangi avlodining global tarmog’i ishlab chiqilmoqda. Vaqti kelib u insoniyat faoliyatining turli xil sohalarida keng qo’llanila boshlaydi.

e) Yaratilayotgan tezlatgichlar, tajriba qurilmalari va olingan axborotlarni qayta ishlash tizimlari zamonaviy texnika imkoniyatlari chegarasi, ko’p hollarda chegaradan tashqariga to’g’ri kelayapti. Bu narsa ko’plab amaliy tadqiqotlar rivojlanishi, yuqori aniqlikdagi texnologiyalar va yangi texnik qurilmalar yaratish zarurligini talab qiladi. Shuning uchun zarralar fizikasi bugungi kunda hech qanday amaliy qo’llanish sohasiga ega bo’lmasada texnika taraqqiyoti rivojlanishi uchun rag’batlantiruvchi omil hisoblanadi.

f) Tajriba tadqiqotlarining o’zida nafaqat turli xil institut, universitet va ilmiy laboratoriyalar, balki turli davlatlar va qit’alar mutaxassislarini birlashtiruvchi katta jamoa ishtirokida amalga oshirilishi juda aniq tashkil

Bu bo`limda tajriba natijalarini olish uslubi atroflicha tavsiflangan, birlamchi yadro dastasi va bir metrli vodorodli pufakchali kamera (VPK) asosiy xarakteristikalar berilgan, impuls va burchaklarni o`lchash xatoliklari, eksperimental materiallar statistikasi, noelastik kesimi, fragmentlarning massa sonlari bo`yicha taqsimotlari, izotoplar tarkibi va 3.25 A  $\Gamma$ B/c impulsli  $^{16}\text{O}$ -to`qnashuvlarida  $Z_{\text{fr}} = 1-4$  zaryadli parchalar hosil bo`lishi inklyuziv kesimlari keltirilgan. Massalari bo`yicha fragmentlar identifikatsiyasi uchun laboratoriya koordinatalar sistemasidagi quyidagi impuls oraliqlari kiritilgan:  $1.75 < p < 4.75$   $\Gamma$ B/c oraliqdagi bir zaryadli fragmentlar protonlar hisoblanadi,  $p = 4.75-7.75$   $\Gamma$ B/c oraliqdagilar  $^2\text{H}$  ga va  $p > 7.75$   $\Gamma$ B/c oraliqdagilar  $^3\text{H}$  yadrosiga tegishli.  $p < 10.75$   $\Gamma$ B/c oraliqdagi ikki zaryadli fragmentlar  $^3\text{He}$  ga tegishli,  $p > 10.75$   $\Gamma$ B/c oraliqdagilar esa –  $^4\text{He}$  ga tegishli.  $p < 21.25$   $\Gamma$ B/c impulsli uch zaryadli fragmentlar  $^6\text{Li}$  yadrosiga tegishli,  $21.25 < p < 24.5$   $\Gamma$ B/c oraliqdagilar  $^7\text{Li}$  ga,  $p \geq 24.5$   $\Gamma$ B/c oraliqdagilar esa  $^8\text{Li}$  ga.  $p < 25.75$   $\Gamma$ B/c impulsli to`rt zaryadli fragmentlar  $^7\text{Be}$  yadrosiga tegishli, impuls spektri boshlanishi  $^7\text{Be}$  yadrolari impuls spektri oxiri bilan yopilishi mumkin bo`lgan berilliy yadro izotoplari orasida  $^8\text{Be}$  turg`un yadrolari mavjud emas.

### 1.3. Tezlatkichlar Sinxrofitatron.

Shunday qilib, yadroviy reaksiyani hosil qilish uchun yadrolarni katta energiyali zarralar yoki yadrolar bilan bombardimon qilish kerak. Bunday yuqori energiyali zarralar radioaktiv yemirilishda hosil bo`ladi. Masalan, alfa-radioaktiv yadrolar yemirilishida 4-9 MeV energiyali alfa-zarralar ham uchraydi. Lekin intensivligi kam bo`lganligi uchun ulardan yadroviy reaksiylarni o`rganishda foydalanib bo`lmaydi.

Yadro va elementar zarralar xususiyatlarini keng o'rganishlik uchun yuqori energiyagacha tezlatib beruvchi tezlatgichlar yaratilishi juda muhim hisoblanadi.

Hozirgi vaqtda yaratilgan tezlatgichlar yordamida turli xil reaksiyalar o'tkazilmoqda.


Yadro tuzilishini o'rganish, yadro reaksiyalarini amalga oshirish hamda elementar zarralar xususiyatlarini aniqlash va boshqa ko'plab muammolarni hal qilishlik uchun yuqori energiyagacha tezlashtirilgan katta oqimdagi zarralar dastasi talab etiladi.


Tezlatgichlar 1930 yillardan boshlab qurila boshlandi. Dastlabki tezlatgichlar energiyalari MeV bo'lsa, hozirgi vaqtda bir necha GeV energiyagacha yetkazildi. Zaryadli zarralarni tezlatish odatda elektr maydonda yoki elektr va magnit maydonlar birgalikda amalga oshiriladi.

Tezlatgichlar tezlashtiruvchi maydon turiga qarab zarralar oqimini fokuslashi, tezlashtirilayotgan zarralar xili, erishgan energiyalariga ko'ra turlicha nomlar bilan ataladilar.

Tezlatgichlarning turlari 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval





To'g'ri ta'sirli tezlatgichlar zarra maydonidan o'tishda bir marotaba energiyasini oshirsa, ko'p karrali ta'sirli tezlatgichlarda esa shu maydondan zarra bir necha marotaba energiya orttirmasi oladilar. Yuqori voltli tezlatgichda energiya orttirmasi potentsiallar ayirmasiga to'g'ri kelsa, induktsiyali tezlatgichda magnit oqimi o'zgarishiga mos keluvchi uyurma elektr maydoni, rezonans tezlatgichlarda esa yuqori chastotali o'zgaruvchi elektr maydoni kattaliklariga mos keladi. Chiziqli tezlatgichlarda zarralar to'g'ri chiziq bo'ylab harakatlansa, siklik tezlatgichlarda aylana yoki spiralsimon harakatlanadilar.

Uzluksiz oqimli tezlatgichlar zarralar oqimi o'zgarmas bo'lishsa, impulsdarida esa zarra dastasi ma'lum vaqt oralig'ida tezlashtiriladi.

Odatda tezlashtirilgan zarralar qo'zg'almas nishonga yo'naltiriladi. Qarama-qarshi oqimda tezlashtirilganda o'zaro massalar teng ma'lum impulsiga ega bo'lgan zarralar bir-birlariga qarama-qarshi yo'nalishda ta'sirlashadilar.

Barcha tezlatgichlarda zarralarni tezlatish jarayonida fokuslab turishlik lozim. Ko'ndalang radial va vertikal tekislik bo'yicha fokuslash magnit maydonining radius bo'yicha kamayib borishi bilan amalga oshiriladi. Bunda

magnit maydonining pasayishi darajasi  $0 < n < 1$  oralig'ida bo'ladi. Bu xil fokuslashga yumshoq (kuchsiz) fokuslash deb ataladi. Bu xil fokuslashda vakuum kamera va magnit o'lchami oshib ketadi, natijada tezlatgich narxining juda yuqori bo'lishiga olib keladi. Juda yuqori energiyali tezlatgichlarda kuchli fokuslash usuli qo'llanilmoqda, bunda zarralar oqimi turli magnit qismlaridan o'tishda har xil ishorali katta gradient maydonga keladilar. Zarralar oqimi gorizonta va vertikal yo'nalishlar bo'yicha ketma-ket fokuslanib, defokuslanadilar.

Rezonans tezlatgichlarda zarralar oqimi bo'ylama yo'nalish bo'yicha ya'ni zarralar aylanish chastotasi bilan tezlashtiruvchi elektr maydoni chastotalarining rezonansini ta'minlash elektr maydon chastotasini yoki magnit maydonni vaqt bo'yicha o'zgarishlik bilan amalga oshiriladi.

Tezlatgichlarda zarralar energiyasi va zarralar oqimi intensivligi muhim xususiyati hisoblanadi. Intensivligini oqim tok kuchi  $I = qN$  bilan ifodalanadi.

Siklik tezlatgichlarda tezlashtiriladigan zarralar tezlashtiruvchi maydonga takror-takror kiritilib, energiyasini oshirib boradi.

Birinchi tezlatgichlardan siklotron 1930 yili Lorens (1901-1958) tomonidan qurildi.

Siklotron (sxemasi 1-rasmda keltirilgan) ikkita A, B duant, ionlar manbai, tezlashtiruvchi yuqori chastotali elektr kuchlanish manbai, magnit maydonlaridan iborat. Duant magnit qutblari orasiga joylashtirilgan. Elektr maydoni duantlar uchlariga beriladi. Ion (zaryadli zarralar) ion manбайдan chiqishi bilan duantning manfiy qutbiga tortilib, energiyasini oshiradi, bu ion magnit maydon ta'sirida duant ichkarisida yarim aylana shaklida aylanadi, yarim davr  $T/2$  oralig'ida qarama-


qarshi duant chegarasiga keladi, bu paytda duant ishorasini o'zgartiradi yana energiyasini oshiradi va h.k. Shunday qilib, siklotronda ion (zarra) rezonans energiyasini orttirib borishligi uchun elektr maydon chastotasi ion (zarra)ning duant ichida aylanish chastotasiga mos kelishligi talab etiladi.

Siklotronda elektr maydoni ion(zarra)ga tezlanish beradi

$$F_E = eZE \cdot 10^7 \text{ dina} \quad (1.1)$$

Bunda  $eZ$ -ion zaryadi,  $E$ -elektr maydon kuchlanganligi, magnit maydoni esa ion (zarra)larni egadi (buradi).

$$F_H = 0,1eZ \vartheta H \quad (1.2)$$



~ Yuqori chastotali kuchlanish manbai.

1 rasm

Bunda  $\vartheta$ -zarra tezligi, H-magnit maydon kuchlanganligi.

Ma'lumki, egri chiziqli harakatda markazdan qochma kuch vujudga keladi

$$F_{mq} = \frac{m\vartheta^2}{R} \quad (1.3)$$

(7.12) va (7.13) kuchlar o'zaro teng bo'lishi kerak.

$$0,1eZH = \frac{m\vartheta^2}{R} \quad \text{bundan} \quad 0,1eZH = \frac{m\vartheta}{R} \quad (1.4)$$

$$\frac{\vartheta}{R} = w \text{ ekanligini e'tiborga olib } w = \frac{0,1eZH}{m} \quad (1.5)$$

(1.5)w-zarraning duantda aylanish chastotasi  $w_3$  ni ifodalaydi. Siklotronda ion T/2 davr ichida energiyani oshirib spiralsimon harakat qiladi. Rezonans ravishda energiyani oshirib borishligi uchun zarra aylanish chastotasi  $w_3$  har doim tezashtiruvchi generator chastotasi  $w_3$  ga teng bo'lishi kerak. Tezashtiruvchi elektr maydon kuchlanishi 100 kV lar bo'ladi.

Siklotronda zarra maksimum energiyasi tezlatuvchi maydon kattaligiga bog'liq bo'lmasdan, magnit maydon kuchlanganligi N va radius R ga bog'liq.

Haqiqatdan ham  $\vartheta = wR$ , kinetik energiya

$$E = \frac{1}{2} m w^2 R^2 = \frac{1}{2} \cdot \frac{(eHR)^2}{mc^2} \quad (1.6)$$

Agar  $H=15$   $\kappa$ Gs,  $R=0,4$  m bo'lsa, proton tezlashtirilsa ( $m_p c^2=938$  MeV), siklotronda proton maksimum kinetik energiyasi

$$E = \frac{(4,8 \cdot 10^{-10} \cdot 1,5 \cdot 10^4 \cdot 40)^2}{2 \cdot 938 \cdot 10^6 \cdot 1,6 \cdot 10^{-12}} \text{eng} = 17 \cdot 10^6 \text{ eV} = 17 \text{ MeV}$$

Siklotronda zarralar energiyasini cheksiz oshirib borish mumkin emas, chunki zarra energiyasi oshishi bilan massasi relyativistik oshib, zarraning aylanish chastotasi  $w_3$  kamayishiga olib keladi, natijada tezlashtiruvchi maydon chastotasi  $w_g$  orasidagi moslikni buzilishiga rezonans yo'qolishiga olib keladi.

Bundan (1.5) ifodadan ko'rinadiki, siklotron yengil zarralarni (elektron) tezlashtirishga yaroqsiz, chunki yengil zarra tezda massasini relyativistik oshiradi. Siklotron proton, alfa-zarra, og'ir ionlarni tezlashtirishga hosdir.

**Sinxrotsiklotron** – siklotronning modifikatsiya qilingan varianti. Bunda siklotrondan farqli ravishda tezlashtiruvchi elektr maydon chastotasi zarra aylanish chastotasining kamayishiga mos ravishda kamayib boradi.

Tezlatish jarayonida zarralar barqaror oqimini avtomatik ravishda hosil qilish avtofazirovka printsipini 1944-1945 yillari V.I.Veksler (1907-1966), Mak-Millan (1907 y.t.) lar ishlab chiqishdilar.

Zarra aylanish chastotasi kamayishi avval bayon qilinganidek massasining relyativistik oshishi va magnit maydonining birmuncha kamayishi sababidan

sinxrotsiklotron impuls tarzida ishlaydi, zarralar oqimi intensivligi siklotrondagidan birmuncha kichik, bu tezlatgich ham og'ir zaryadli zarralar proton, deytron, alfa, ionlarni 1 GeV energiyagacha tezlashtiradi.

Sinxrotsiklotronda zarra tezlashtiruvchi kamera markazidan chetlarigacha spiralsimon aylanib boraveradi. Energiyasi oshishi bilan kamera o'lchami ham oshib boradi, kameraning to'la hajmi magnit qutblari orasida turishi kerak, bu esa ko'p tonnalab temir elementini bo'lishligini talab etadi, qurilmaning tannarxining keskin oshib ketishiga olib keladi.

Sinxrotsiklotronda zarra maksimum energiyasi  $W \sim 1$  GeV dan oshmaydi, chunki tezlashtiruvchi elektr maydoni chastotasining keskin kamayishi imkon bermaydi. Bundan tashqari zarra orbitasi oshib borishi bilan magnit maydoni kamayishi juda katta radiusni tashkil etadi. Masalan: sinxrotsiklotronda zarra energiyasi  $W \sim 10$  GeV bo'lsa, magnit maydoni  $H$  kamayishi 20%, dastlabki  $H_0 = 18\,000$  erst dan  $H = 14\,500$  erst gacha kamayadi, radiusi  $R = 25$  m bo'lib, magnit massasi  $\sim 1,5 \cdot 10^6$  t bo'ladi. Shuning uchun energiyasini oshirishning boshqa bir usuli sinxrofazotronda zarrani o'zgarmas radiusda tezlatishdir.

Sinxrofazotronda zarrani o'zgarmas radiusda tezlatish uchun

$$R = \frac{\sqrt{W(W + 2E_0)}}{300ZH} = \text{const}$$

bo'lishi kerak, ya'ni energiya oshishi bilan magnit maydoni kuchlanganligi  $H$  ham oshib borishi lozim.

Sinxrofazotronda zarra aylana halqada va to'g'ri chiziqli harakatda qatnashadi, tezlashtiruvchi rezonator halqa va to'g'ri chiziqli bo'laklar orasiga joylashgan.

Tezlashtirilayotgan zarralar o'zgarmas orbitada harakatlanishi uchun orbitaga yetarli darajada tezlashtirilib injeksiya (purkash) qilinadi. Sinxrofazotron maksimum energiyasi injeksiya energiyasiga bog'liq.

$$\frac{W_i(W_i + 2E_0)}{H_i^2} = \frac{W(W + 2E_0)}{H^2} \quad (1.7)$$


Bu yerda  $W_i$  –injeksiya energiyasi,  $W$ -sinxrofazotron maksimum energiyasi,  $H$ -lar mos ravishda magnit maydon kuchlanganligi.

$W_i \ll W$  ekanligini e'tiborga olib (1.7) ifodadan

$$W_i = \frac{W(W + 2E_0)}{2E_0} \frac{H_i^2}{H^2} \quad (1.8)$$

kelib chiqadi.

Injektsiya energiyasi qancha oshsa, sinxrofazotron energiyasi kvadratik marotaba oshib boradi.



Betatronlarda zarralar energiyasi ko'pi bilan 300 MeV gacha yetkazish mumkin. Hozirgi vaqtda 100 lab betatronlar ishlab turibdi. Betatron rezonans bo'lmagan tezlatkichlar bo'lib, 1940 yilda Kerst tomonidan kashf etilgan.

Bunda zarrachalar energiyasini o'zgarmas orbitada induksion elektr yuritguvchi kuch yordamida oshiriladi. Buni shu kuch ta'sirida halqada zarracha tezlanish oladi. Ma'lumki uyurma elektr maydon kuchlanganligi magnit oqimi o'zgarishi hamda magnit maydon kuchlanganliklari bilan quyidagicha bog'langan:

$$E = \frac{10^{-8}}{2\pi} \frac{d\Phi}{dt} = \frac{\pi R^2 10^{-8}}{2\pi R} \frac{dH_m}{dt} = \frac{R}{2} \frac{dH_m}{dt} 10^{-8} \frac{V}{sm}$$

Uyurma elektr maydon kuchlanganligi tufayli hosil bo'lgan Lorens kuchi quyidagicha

$$F_E = eZE \cdot 10^7 = eZ \cdot 10^7 \frac{R}{2} \frac{dH_m}{dt} 10^{-8} = 0,1 \cdot \frac{eZR}{2} \frac{dH_m}{dt}$$

Magnit oqimi  $0 \div t$  oralig'ida  $0 \div H_{\max}$  gacha o'zgarib borsa u holda Lorens kuchini quyidagicha yoza olamiz;

$$\int_0^t \frac{d(m\mathcal{G})}{dt} = 0,1 \cdot \frac{eZR}{2} \int_0^{H_m} \frac{dH_m}{dt}$$

$$F_E = \frac{d(m\mathcal{G})}{dt} = 0,1 \cdot \frac{eZR}{2} \frac{dH_m}{dt} \quad H = kt, \quad dH = kdt, \quad k = \frac{dH}{dt}$$

$$F_E = eZE \cdot 10^7 = eZ \cdot 10^7 \frac{R}{2} \frac{dH_m}{dt} 10^{-8} = 0,1 \cdot \frac{eZR}{2} k$$

Zarracha kuch tasirida o'zgarmas orbitada tezlanuvchan harakat qiladi.

$$a = \frac{F_E}{m} = 0,1 \frac{eZR}{2m} k, \quad t^2 = \frac{H^2}{k^2}$$

Zarracha bosib o'tgan yo'l

$$L = \frac{at^2}{2} = 0,1 \frac{eZR}{2 \cdot 2m} kt^2 = 0,1 \frac{eZRk}{4m} \frac{H^2}{k^2} = 0,1 \frac{eZR}{4m} \frac{H_{\max}^2}{k}$$

Zarracha Lorens kuchi ta'sirida tezlanuvchan harakatlanib erishgan energiyasi

$$W = EL = \frac{R}{2} \frac{dH_{\max}}{dt} 10^{-8} \cdot 0,1 \cdot \frac{eZR}{4m} \frac{H_{\max}^2}{k} = \frac{eZR^2}{8m} \frac{H_{\max}^2}{k} 10^{-9} = \frac{eZR^2 H_{\max}^2}{gm} 10^{-9}$$

Bundan ko'rinadiki zarrachaning Betatronda erishgan energiyasi magnit maydon kuchlanganligining kvadratiga to'g'ri massasiga esa teskari proposional oshib borar ekan. Betatron yengil zarrachalarnigina tezlashtira oladi og'ir zarrachalar uchun yaroqsiz ekan. Masalan proton uchun  $H_m = 5000 \text{Erst}$   $R = 80 \text{sm}$  erishgan energiyasi  $W_{\max} = 2 \text{MeV}$  bo'ladi.

Bundan zarracha impulsi quyidagicha bo'ladi.

$$m\mathcal{G} = mR \frac{\mathcal{G}}{R} = mR\omega = mR \frac{0,1eZH}{m} = 0,1eZHR$$

Ikkinchi tomondan

$$mv = mR \frac{v}{R} = mRw = mR \cdot \frac{0,1eZH}{m} \frac{r}{r} = 0,1eZH_r R$$

(3) va (4) ni tenglashtirsak,

$$\frac{0,1eZR}{2} H_m = 0,1eZH_r R$$

$$H_m = 2H_R \quad \text{Videroe sharti.}$$

Ya'ni zarracha betatronda o'zgarmas orbitada aylanib energiyasini oshirish uchun markazdagi maydon kuchlanganligi orbitadagi qiymatidan ikki marotoba katta bulishi kerak ekan. Bunga Videroe yoki betatron sharti deb ataladi. Betatron

energiyasini hisoblash uchun faraz qilaylik, magnit maydoni kuchlanganligi vaqt bo'yicha chiziqli oshib borsin.

Mikrotron 1944 yilda birinchi marotaba V.I. Veksler tomonidan kashf etilgan.

Keyinchalik S.P. Kapisa tomonidan modifikatsiya qilingan.

Mikrotronda zarrachalar energiyasi ~30 MeV gacha intensivligi esa  $I \sim 50$  mA gacha yetkaziladi. Mikrotronda zarralar intensivligi boshqa tezlatgichlarga nisbatan kichik buladi.


Mikrotron siklik tezlatgich, bunda ham zarrachalar siklatron, sinxrosiklotrondagi kabi doimiy magnit maydonida harakat kiladi.

Mikrotronning boshqa tezlatgichlardan farki:

- 1) Magnit maydon doimiy ( $n=0$ )
- 2) tezlashtiruvchi kurulma magnit maydonining chetiga joylashtirilgan bo'ladi.

- 3) Energiya ortirmasi  $\kappa = \frac{\Delta W}{E_0}$  zarracha tinch holat massasiga to'g'ri keluvchi energiyasining karrali qiymatlariga teng bo'ladi.

- 4) Aylana markazi chetidan kutib markazi tomon siljib boradi.



Zarrachalar barcha takror-takror aylanishlarida bir vaqtning o'zida rezonatoridan energiyasini oshirib borar ekan. Aylanishlar sonining oshishi bilan rezonatorida zarrachalar oqim tok kuchining oshishiga olib keladi.

Masalan: 11- orbitada bo'lsa rezonatorida zarrachalar oqim tok kuchi  $(m-1)I$  eki  $10I$  bo'ladi. Bu esa o'z navbatida intensivlikning kamayishiga olib keladi. Mikrotronda zarracha aylanish davri ortishi tezlatuvchi generator davrining karrali qiymatlariga qadar oshib boradi.

$$\Delta T = kT_s \quad (1)$$

$T_s$ - tezlatuvchi generator davri.

Ko'pgina mikrotronlar uchun  $k=1$  ga teng bo'ladi. U holda  $\Delta W = E_0$ . Demak har bir aylanishda

*Elektron uchun:  $E_0 = 0.511 \text{ MeV}$*

*Proton uchun:  $E_0 = 938 \text{ MeV}$  bo'ladi.*

Har bir aylanishida 938 MeV energiya ortirmasini berish qiyin shuning uchun elektronni tezlashtirish qulayroq.

Mikrotronda davr o'zgarib borishini quyidagicha hisoblay olamiz.

1- aylanishdagi davri.

$$T_1 = \frac{2\pi m_0}{0,1eZH} \left(1 + \frac{W_1}{E_0}\right)$$

$$n - \text{orbitada} \quad T_n = \frac{2\pi m_0}{0,1eZH} \left(1 + \frac{W_1 + (n-1)\Delta W}{E_0}\right)$$

$$n+1 - \text{orbitada} \quad T_{n+1} = \frac{2\pi m_0}{0,1eZH} \left(1 + \frac{W_1 + n\Delta W}{E_0}\right)$$

$$n, n+1 \text{ aylanishlarda davr orttirmasi; } \Delta T = T_{n+1} - T_n = \frac{2\pi m_0}{0,1eZH} \frac{\Delta W}{E_0}$$


Mikrotronda rezonans buzilmasligi uchun energiya ortirmasi  $\Delta W = E_0$ ,  
tebranish davri  $T_s = \Delta T$

$$T_1 = T_s \left(1 + \frac{W_1}{E_0}\right)$$

$$\Delta T = T_s \frac{W_1}{E_0}$$

$$T_s = \frac{2\pi m_0}{0,1eZH}, \quad W_1 = E_0, \quad \Delta W = W_1 = E_0$$

Tebranish davri aylanishlar soniga mos ravishda quyidagicha bo'ladi.



Birinchi davr ikkinchi davrdan ikki marta kichik bo'ladi. Muvozanat faza

$$\text{saqlanadi. } \frac{W_1}{E_0} = 1; T_1 = T_c \left(1 + \frac{W}{E_0}\right) = 2T_c; T_2 = 3T_c$$

